

ADABIYOT

5-sinfda bosqichli nazorat ogʻzaki tarzda yil davomida adabiyot boʻyicha oʻrganilgan mavzular asosida oʻtkaziladi.

Davlat taʼlim standartida 5-sinf oʻquvchilari oʻzlashtirishlari kerak boʻlgan bilim, koʻnikma va malakalarda dasturda berilgan 23 nafar ijodkorning tarjimai holi, ularning asarlari, shuningdek, xalq ogʻzaki ijodi namunalari va boshlangʻich nazariy maʼlumotlar haqida bilimga ega boʻlish, matni ifodali oʻqish, matn mazmunini oʻz soʻzlari bilan bayon eta olish, asar qahramonlarining xatti-harakatlariga mustaqil munosabat bildirish koʻnikmasini egallash, badiiy asarda tasvirlangan asosiy voqeani, lirik sheʼrlarda ifodalangan his-hayajonni bir qadar tuyish, maqol, topishmoq, ruboiy, hikoya, qasida haqida dastlabki tushunchalarni bilish, dasturda tavsiya etilgan 6 — 7 sheʼriy asarni yodlash malakasiga ega boʻlishi kerakligi belgilangan.

Mazkur ogʻzaki bosqichli nazorat uchun savollar Davlat taʼlim standarti talablaridan kelib chiqib, oʻqib oʻrganilgan asarlar, nazariy maʼlumotlar hamda yod olingan asarlar boʻyicha ikki qismdan iborat qilib tuzildi.

Oʻquvchi oʻzi tanlagan bilet boʻyicha savol va topshiriqlarga javob beradi.

Ogʻzaki sinovni baholash quyidagi bilim, koʻnikma, malaka elementlari va meʼyorlardan foydalangan holda amalga oshiriladi:

1. Ijodkorlarning asarlarini oʻqib tushunganligi — 5 — 0 ballgacha;
2. Nazariy maʼlumotlar haqidagi bilimi — 5—0 ballgacha;
3. Fikrlarini asardan parcha keltirib, isbotlay olishi — 5 — 0 ballgacha;
4. Nutqining aniq va ravon boʻlishi — 5—0 ballgacha;
5. Asar va uning qahramonlariga mustaqil munosabat bildira olishi — 5—0 ballgacha;
6. Nasriy yoki sheʼriy matni talaffuz meʼyorlariga(urgʻu va mantiq qoidalariga) amal qilgan holda oʻqishi — 5 — 0 ballgacha;
7. Matni yoddan oʻqish koʻnikmasini egallaganligi — 5 — 0 ballgacha;
8. Matni taʼsirchan va ifodali ohangda oʻqishi — 5 — 0 ballgacha.

Koʻrsatilgan meʼyorlar boʻyicha eng yuqori natija 40 ballni tashkil etadi. Bu natija bilim, koʻnikma, malaka elementlari soniga, yaʼni 8 ga boʻlinsa, eng yuqori natija 5 ballni tashkil etadi. Baholash shu tariqa davom ettiriladi.

1-bilet

1. Xalq topishmoqlari va zamonaviy topishmoqlarga misol keltiring, ularni yechishda «jazolash», «shahar» yoki «qishloq» tarzida berish nimani anglatishi haqida gapiring.
2. Sinfдан tashqari yod olgan sheʼringizdan birini yoddan aytib bering.

2-bilet

1. Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning hayoti va ijodi haqida soʻzlab bering. U kishining hadislaridan misol keltiring va maʼnosini aytib bering.
2. Ezop masallaridan birini qayta hikoya qiling, mazmunini aytib bering.

3-bilet

1. Hamid Olimjonning «Oygul bilan Baxtiyor» ertagidagi Oygul qanday qiz, uni tavsiflang, undagi qaysi sifatlar sizga yoqdi? Nima uchun?
2. Muqimiyning «Sayohatnoma» asaridan 3—4 bandini yod ayting, mazmunini gapiring.

4-bilet

1. Xalq maqollaridan namunalar ayting va sharhlang. Maqol nima?
2. Usmon Nosirning she'rlaridan birini yod ayting.

5-bilet

1. Ezopning hayoti va ijodi haqida gapirib bering. Masallarida ifodalangan ezgu fazilatlar haqida gapiring.
2. O'zingizga yoqqan she'rni yoddan aytib bering.

6-bilet

1. «Uch og'a-ini botirlar» ertagi qahramonlarining eng kichigi — Kenja botirning sizga yoqqan sifatleri haqida gapirib bering.
2. Mirtemirning «Qishlog'im» she'rini ifodali o'qib bering.

7-bilet

1. «Susambil» ertagining mazmuni haqida tushunganingizni gapiring va ertak qahramonlari harakatlariga munosabat bildiring.
2. O'zingizga yoqqan she'rni ifodali qilib yoddan aytib bering.

8-bilet

1. «To'maris» afsonasi haqida mustaqil fikr bildiring, To'marisning qaysi fazilatlari sizga yoqdi?
2. O'zingizga yoqqan she'rni ifodali qilib yoddan aytib bering.

9-bilet

1. «Iskandar Zulqarnayn» dostoni sizda qanday taassurot qoldirdi? Adabiy ertak haqida gapirib bering.
2. Usmon Nosirning «Yur, tog'larga chiqaylik» she'rini ifodali qilib o'qib bering.

10-bilet

1. O'.Hoshimovning «Dunyoning ishlari» qissasidagi ona timsolini tavsiflab bering. Uning sizga yoqqan sifatleri haqida gapirib bering.
2. O'zingiz sinfdan tashqari yod olgan she'rni aytib bering.

11-bilet

1. Mirtemirning hayoti va ijodi haqida gapirib bering. Shoir she'rlaridagi tabiat manzaralarini tasvirlang.
2. O'qituvchingiz bergan badiiy asardan parchani ifodali o'qib bering.

12-bilet

1. Shukrulloning «Umr haqida ertak» asarini ifodali o'qing va mazmunini so'zlab bering.
2. Usmon Nosirning «Yurganmisiz birga oy bilan» she'rini yoddan aytib bering.

13-bilet

1. Nodar Dumbadzening «Hellados» hikoyasidagi Yanguli timsoliga tavsif bering. Xarakter haqida tushunganingizcha gapiring.
2. O'zingizga yoqqan she'rni ifodali qilib yoddan aytib bering.

14-bilet

1. Hans Xristian Andersenning «Bulbul» ertagida ifodalangan yaxshilik va yomonlik haqida gapiring.
2. Maqollardan 4—5 ta namuna ayting, mazmunini tushuntiring .

15-bilet

1. E. Vohidovning «O'zbekim» she'rini ifodali qilib o'qing, mazmunini gapirib bering.
2. Topishmoq nima? Misol keltiring va sharhlab bering.

16-bilet

1. A. Oripovning hayoti va ijodi haqida gapiring. «O'zbekiston» she'rini tahlil qiling.
2. Sinfдан tashqari yod olgan she'rlaringizdan birini yoddan ayting.

17- bilet

1. G'afur G'ulomning «Mening o'g'rigina bolam» hikoyasidan parchani ifodali qilib o'qing, kampir va o'g'ri timsollarini tavsiflab bering.
2. O'zingizga yoqqan she'rni yoddan ayting.

18-bilet

1. A. Oripovning «O'zbekiston» she'ridan to'rt bandni yoddan ayting, o'zingiz ham ona Vatan haqida mustaqil fikr ayting.
2. O'qituvchingiz bergan badiiy asardan parchani ifodali o'qing.

19-bilet

1. Alisher Navoiyning «Sher bilan durroj» hikoyatini ifodali qilib o'qib bering. Undagi chin va yolg'onning qanday natijaga olib kelganligi haqida gapiring.
2. O'zingizga yoqqan she'rni ifodali qilib yoddan ayting.

20-bilet

1. E. Vohidovning «O'zbekim» she'rini ifodali qilib o'qing. She'rdan olgan taassurotlaringiz haqida so'zlab bering.
2. O'zingiz mustaqil yod olgan she'rni yoddan ayting.

21-bilet

1. Abdulla Qodiriyning «Uloqda» hikoyasidagi bola timsoli haqida so'zlab bering . Hikoya haqidagi tushunchangizni gapiring.
2. «Oyguil bilan Baxtiyor» dostonidan parchani yoddan ayting.

22-bilet

1. O‘. Umarbekovning «Qizimga maktublar» asari mazmuni va sizga yoqqan jihatlari haqida gapiring.
2. O‘zingiz yoqtirgan she‘rni yoddan ayting.

23-bilet

1. Usmon Nosirning «Gulzor — chaman» she‘rini ifodali qilib o‘qing va tahlil qiling.
2. O‘zingizga yoqqan she‘rni yoddan ayting.

24-bilet

1. Bobur ruboiylaridan namunalarni ifodali qilib o‘qing va mazmunini tahlil qiling. Ruboiy haqida tushunchangizni aytib bering.
2. O‘zingizga yoqqan she‘rni ifodali qilib yoddan ayting.

25-bilet

1. Sa‘diyning «Guliston» asaridan parchani ifodali qilib o‘qing. Asardan olgan taassurotlaringiz haqida gapirib bering.
2. Sinfдан tashqari yod olgan she‘ringizdan birini yoddan ayting.